


## Dalvarzintepa Yodgorligida Arxeologik Tadqiqot

*Bekmurodova Mahliyo Musulmonqul qizi<sup>1</sup>, Mirzamuratov Asadbek Ōrinboy o'g'li<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Dalvarzintepa yodgorligida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan onarxeologik buyumlar, topilmalar haqida .

**Kalit so'zlar:** Dalvarzin xazinasi, sopol buyumlar, zeb-ziynat buyumlari, oltin shodasi, tangalar, haykalchalar, jez, bigiz, urchuq, shaxmat donalari, devor naqshlari bo'laklari.

Kushon imperiyasi davrining (eramizning 1-4 asrlari) yodgorliklari orasida Termizdan 60km uzoqlikda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan qadimiy Dalvarzintepa shaharchasi alohida o'rin egallaydi. 1971- yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida Dalvarzintepa yodgorligi ochildi. U ma'muriy bino qoldiqlari kulollar yashaydigan xonalar tadqiq etildi. Dalvarzintepadan topilgan ikki yurusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. 1972- yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topildi. Mil.2-3 asrlarga oid mazkur xazinadan sirg'a, bilak uzuk, kamarband ,uzuk ,oltin shodasi, sopol idishlar, haykalchalar, taqinchoqlar , tangalar va shaxmat donalari topilgan.



Dalvarzintepadan jez quyish ishi ancha rivojlangan. Jezdan qilingan o'roq, iskana, bigiz, igna, nayza o'qining uchki qismi va zeb - ziynat buyumlari uchraydi. Dalvarzintepadan topilgan temir pichoq va temir pichoqchalar qadimgi Farg'ona aholisi metall bilan ancha erta tanish bo'lganligini ko'rsatadi. Topilmalar orasida to'qimachilikning ancha taraqqiy etganidan darak beruvchi materiallar ( jez, igna, bigiz, urchuq va boshqalar) bor. Yaqinda Toshkentda mazkur Dalvarzin xazinasi to'plamiga taalluqli buyumlar ko'rgazmasi bo'lib o'tadi. Ushbu joyda olib borilgan qazish ishlari davomida turli xil fil suyaklaridan topilgan osori- atiqalar alohida ahamiyat kasb etadigan dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari (mil.avv.1-2 asr), qadimgi Yunon-Baqtriya davriga oid qimmatbaho toshlar , tangalar mayda sopol buyumlar topilgan. Sho'rchi tumanidagi qadimiy tepalik Kushon davri madaniyati saqlanib qolgan noyob yodgorlik sifatida jahonga tanilgan. Dalvarzintepani dunyoga tanitishga Yaponiyalik taniqli qadimshunos olim Kyudzo Katoning ham alohida xizmat bor. Ko'q yillik bu yerda arxeologik

<sup>1,2</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabalari



tadqiqot ishlarini olib borgan hassos arxeologik Kushon podsholigi davriga oid ko'plab asori- atiqalar topib ularni ilmiy jihatdan o'rgandi .

1967- yilda professor G.APuganchekova "Samarqand yaqinidagi qadimgi Afrosiyob xarobalari qazib tekshirilganda unga 17 ta madaniy qatlam borligi aniqlangan. Dalvarzintepa - antiqa antik shahar undagi madaniy qatlam 2-3 tadan oshmaydi.

Bundan tashqari Professor Kato Kyudzo asos solgan Soka universiteti huzuridagi o'sha vaqtlarda Koyama Misuri rahbarlik qilgan Buyuk ipak yo'li arxeologiya markazi tomonidan 2006-2007 yillarda mazkur obyekttda tadqiqot ishlarini davom ettirilgan. Yapon - o'zbek ekspeditsiya faoliyati davomida majmuaning salmoqli hududi jumladan shaharning qoq markazidan o'tgan eni 18 metrlik keng ko'cha aniqlanib ochiladi. Bu jarayonda katta miqdordagi gildan va gil- gipsdan yasalgan budda haykallari, devor naqshlari bo'laklari , sopol buyumlar va numizmatika ga oid ashyolar topilgan. Bu yirik tepalikning istalgan joyini qazib ko'rsangiz birdaniga qadimgi yodgorlik namunalariga duch kelasiz Kushon saltanati davrida Dalvarzin atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning atrofidagi katta xandaqlar suv bilan to'ldirilgan",- deb yozadi.

Katta Dalvarzin shahrining mudofaa devorlari qalin paxsa va xom g'ishtdan tiklangan. Bu devorning qalinligi 8-10 metr bo'lgan. Devorning ba'zi joylarida mustahkam istehkomlar, burjlar va askarlar yurishi uchun maxsus yo'laklar bor edi. Dalvarzintepadan topilgan ko'plab noyob topilmalar Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya, Fransiya kabi dunyoning bir qancha davlatlaridagi ekspozitsiyalarida namoyish etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 27-maydagi "Surxondaryo viloyati turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni



rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori tarixi uzoq- uzoq o'tmishga borib taqaladigan Dalvarzintepani sayyohlik makoniga aylantirishning yangi yo'nalishlari belgilab beradi. Dalvarzintepa xazinasida ajdodlarimizning qo'shni xalqlar va mamlakatlar bilan qadimdan savdo-sotiq, madaniy aloqada bo'lganligidan darak beradi. Dalvarzin xazinasida Markaziy bankka topshirildi. Bu xazinaning og'irligi 35kg 712gr 13 mg edi .

Buyuk o'tmishimizning nafis qirralarini jahonga keng tarannum etish va avlodlarga yetkazishga munosib hissa qo'shdi. Mahalliy va xorijlik qadimshunoslar Dalvarzintepada qariyb oltmish yildan buyon arxeologik tadqiqot olib borib, bu yerda qadimgi shahar zodagonlari uylari, ishlab chiqarish inshootlari, shu jumladan kulol ustalar mahallasi va xumdonlar ,diniy inshootlar, shaharning buddaviylik ibodatxonalari, mudofaa istehkomlarni atroflicha o'rgangan. Ko'plab arxeologik ashyolar manbalar jumladan, yuksak did bilan yaratilgan badiiy san'at namunalari badiiy metall buyumlar va hunarmandchilik namunalarini topishgan. Budda ibodatxonasining qoldiqlari, buddaning boshi qimmatbaho fil suyagidan tayyorlangan shaxmat donalari, gipsdan ishlangan nafis haykallar, mis tangalar, mis ko'zgular, fil suyagidan tayyorlangan taqinchoqlar, shoshqol o'yin donalari singari topilmalar bu makonning qadimdan go'zal shahar va qasrlarga ega madaniyat, san'at, tijorat rivojlangan hudud bo'lganini jonli hikoya qiladi.

Mamlakatimizning boy o'tmishidan so'zlovchi bu yodgorlikda joriy yildan amal oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar Dalvarzintepani dunyo ahlini maftun etadigan arxeologik turizm maskaniga aylantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'lmaqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N. A. Egamberdirva. Arxeologiya. Toshkent-2017
2. G. A. Pugachenkova va boshqalar. Dalvarzintepa – O'zbekiston janubidagi Kushonlar shahri 1978
3. <https://st.lippu.ltd/vemQry>

